



XII. ULUSLARARASI TÜRK DÜNYASI ARAŞTIRMALARI SEMPOZYUMU

21-23 MAYIS 2025 - NİĞDE



ТҮРКІ ӘЛЕМІ
TÜRK DÜNYASI
ТҮРК ДҮЙНӨСҮ
TURK DUNYOSI



TÜDAS 2025



BİLDİRİLER KİTABI
CİLT I

Ziya AVŞAR Shokria SAYEDİ	Bir Kıyas Kargaşası; Mesnevi'deki Bakkal ve Papağan Öyküsü <i>A Confusion of Comparisons: The Shopkeeper and Parrot Story in the Mesnevi</i>	747-754
Гульгакы ДЖУНУШАЛИЕВА Гульнара ЖАМАШЕВА	Лингвист-Окумуштуу Махмуд Кашкаринин «Дивани Лугат Ат-Түрк» Сөздүгү Жана Анын Изилдениши <i>The Dictionary of Linguist Mahmoud Kashkari "Diwani Lugat At-Turk" and His Research</i>	755-762
Seher MAŞKARAOĞLU	Osman Zaatov'un Rusça-Kırım Tatarca Sözlüğündeki Söz Varlığı <i>Vocabulary in Osman Zaatov's Russian-Crimean Tatar Dictionary</i>	763-772
Г.Э. САДЫРАЛИЕВА	Кыргыздын Салттуу Ырларынын Лингвомаданий Мүнөзү <i>Linguocultural Image of Traditional Kyrgyz Songs</i>	773-778
Adalet ÖZKIL Merve TANBAŞI	Leyla vü Mecnun <i>Leyla and Mecnun</i>	779-792
А.К.ӨМІРЗАҚОВА М.М.САТИНБЕКОВА	Лингводидактикалық Зерттеулердегі Транслингвалды Тәсіл: Тілдік Интерференция Мәселесі <i>The Translanguaging Approach in Linguodidactic Research: The Issue of Language Interference</i>	793-802
Funda ORUL	Kürk Mantolu Madonna'da Hafıza, Kimlik ve Toplumsal Bellek: Kuramsal Bir Yaklaşım <i>Memory, Identity, and Collective Memory in Kürk Mantolu Madonna: A Theoretical Approach</i>	803-810
Жанар ӘБДІҒАППАРОВА	Отарлық Кезең Қазақ Әдебиетіндегі Әйел Бейнесінің Трансформациясы <i>The Transformation of the Female Image in Kazakh Literature During the Colonial Era</i>	811-818
Fatma Gülay MİRZAOĞLU Ali BEZGİN	Dede Korkut Hikâyelerinden "Dirse Han Oğlu Boğaç Han Destanı"nın Geert Hofstede'nin Güç Mesafesi Bağlamında Değerlendirilmesi <i>Evaluation of "Dirse Han Oglu Boğaç Han Saga" from Dede Korkut Stories in the Context of Geert Hofstede's Power Distance</i>	819-824
Nazzora BEKOVA	Alisher Navoiyning Mistik Va Adabiy An'analarida Hamd Poetikasi <i>The Poetics of Hamd in Alisher Navoi's Mystical and Literary Tradition</i>	825-830
Bekir ÇINAR	Divan Şiirinde Türk Tipi Sevgilinin Güzellik Unsurları <i>Lements of Beauty of the Turkish Type Lover in Divan Poetry</i>	831-838
Mahliyo IBROIMOVA Rustam SHOKIROV	Alisher Navoiyning "Sittai Zaruriya" Qasidalaridagi Falsafiy va Tasavvufiy Jihatlar <i>Philosophical and Mystical Dimensions of Alisher Navoi's Sittai Zaruriya Qasidasi</i>	839-846
Guliza ASSAN	Kazak Türkçesinde Birleşik Kelimelerin Yapısal ve Anlamsal Açıdan İncelenmesi <i>The Structural And Semantic Analysis of Compound Words in Kazakh Turkish</i>	847-854
Akbota SERİKKAZYKYZY Ravşangül AVAKOVA	Kıpçak Türkçesindeki İkilemeler: Ermeni Alfabesi ile Dilin Derinlikleri <i>Reduplications in Kipchak Turkish: The Depths of Language with the Armenian Alphabet</i>	855-860
Dilobar SULAYMANOVA	O'zbek Tilining Sintaktik Sathida Leksik Yaxlitlik Tamoyili Universal Sintaktik Bog'liqlik Misolida <i>The Principle of Lexical Integrity at the Syntactic Level of the Uzbek Language: A Case Study of Universal Dependency</i>	861-868
Duru Özden GÜRBÜZ F. Gülay MİRZAOĞLU SIVACI	Nogay Türklerine Ait Besik Yırlarının İşlevsel Açıdan İncelenmesi <i>Functional Analysis of Nogay Turks' Cradle Songs</i>	869-878
С.Қ. ҚОЖАҒҰЛОВ	Мағжан Жұмабаев Поэзиясындағы «Түрікшілдік» Идея	879-884

ALISHER NAVOIYNING MISTIK VA ADABIY AN'ANALARIDA HAMD POETIKASI

Nazzora BEKOVA*

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot Alisher Navoiyning hamd poetikasini o'rganib, uning tuzilmaviy, falsafiy va badiiy jihatlarini islom ilohiyoti, tasavvuf an'analar va fors-turk mumtoz adabiyoti doirasida tahlil qiladi. Navoiy hamd she'riyati keng tan olingan bo'lsa-da, uning global poetik an'analar bilan qiyosiy tahlili bo'yicha sezilarli bilim bo'shlig'i mavjud. Xususan, Qur'oni Karim intertekstualizatsiyasi, lingvistik va semiotik tuzilmalari hamda tasavvufiy epistemologik ahamiyati yetarlicha tadqiq qilinmagan. Ushbu ish adabiy tahlil va hermenevtik yondashuv asosida Navoiyning poetik strategiyalari, intertekstual havolalari va tematik motivlarini tizimli ravishda o'rganib, uning ma'naviy sadoqat va intellektual izlanishning o'ziga xos uyg'unligini yaratganligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Navoiyning hamdni mustaqil poetik unsur emas, balki tizimli she'riy tuzilmaning bir qismi sifatida joylashtirishi mistik adabiyot rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Uning tasavvuf (fano, suluk, ma'rifat) tushunchalarini qo'llashi faqat diniy ifoda shakli sifatida emas, balki Temuriylar davridagi falsafiy bahslarga hissa qo'shuvchi muhim omil sifatida ham maydonga chiqadi. Tadqiqot natijalari shuni anglatadiki, Navoiyning poetik innovatsiyalari an'anaviy diniy ifodalar doirasidan chiqib, ilohiyot, poetika va mistitsizmni o'zida birlashtirgan yetuk namunaviy modelni yaratgan. Ushbu xulosalar islomiy adabiy an'analar bo'yicha qiyosiy tadqiqotlar, tarixiy va ilohiy lingvistik bo'yicha fanlararo izlanishlar, shuningdek, adabiy va axloqiy diskursda ruhiy falsafaning zamonaviy qo'llanilishi uchun yangi ilmiy yo'nalishlar ochib beradi.
Kalit So'zlar: *Alisher Navoiy, Hamd She'riyati, Islom Poetikasi, Qur'oni Karim Intertekstualizatsiyasi, Tasavvuf Falsafasi.*

The Poetics of Hamd in Alisher Navoi's Mystical and Literary Tradition

Abstract: Alisher Navoi's hamd poetics is examined as a structure, philosophy, and art within the religious and Sufi traditions, and in the classical literature of the Turkic and Persian circles. While it is widely attested for Navoi's hamd poetry, there still remains a very large gap in its comparative analysis with the global poetic traditions in terms of Qur'anic intertextuality, linguistic and semiotic structures and in terms of its epistemological importance in Sufi discourse. This study undertakes a systematic literary analysis and hermeneutic approach to reveal Navoi's creative play with poetry as a means of transcending the spiritual and community ties, as well as intertextuality and thematic motifs that emphasize the intellectual journey of the author in his exploration of unity of faith and human mortality. The research shows that Navoi's placing of hamd within poetical structure was a tremendous contribution to the development of mystical literature. Furthermore, his inclusion of tasavvuf (fana, suluk and ma'rifat) into his poetry was both a contribution to devotional ways and concepts and to philosophical debating of the age of Timurid. The result indicates that Navoi's poetic innovations stands apart from traditional religious expressions, with his work serving as a groundbreaking example of simultaneously merging theology, poetics and mysticism. Such implications for future comparative research in Islamic literary traditions, interdisciplinary studies in historical and theological linguistics, and applications of spiritual philosophy to literary and ethical discourse are drawn out of these insights.

Keywords: *Alisher Navoi, Hamd Poetry, Islamic Poetics, Qur'anic Intertextuality, Sufi Philosophy.*

Kirish

Alisher Navoiy ijodi turk va butun Sharq adabiyotining rivojlanishida muhim o'rin tutib, uning poetikasi tasavvuf falsafasi, Qur'oni Karim mafkurasi va Sharq mumtoz she'riyatining eng yuksak tamoyillari bilan uyg'unlashgan holda shakllangan. Navoiy she'riyatida ilohiy madh (hamd) janri alohida e'tiborga loyiq bo'lib, uning badiiy uslubining nozik jihatlarini, tasavvufiy-ma'rifiy tafakkurini va adabiy-estetik yondashuvlarini aks ettiradi. Shoir ijodida hamd an'anasi Qur'oni Karim va hadislar asosida shu qadar mukammal poetik tuzilma sifatida shakllanganki, bu janr Navoiyga qadar bo'lgan Sharq mumtoz adabiyotida bunday tizimli va chuqur shaklda rivojlanmagan edi. Olimlarimiz 6 asrdan buyon Alisher Navoiyning boy merosi va shaxsini o'rganib kelmoqdalar. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Alisher Navoiy asarlarida teran ifoda topgan milliy va umuminsoniy g'oyalarning jahon tamaddunida tutgan o'rnini hamda o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ular qalbida yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyatini nazarda

* Prof., f.f.d. (DSc), Buxoro Davlat Universiteti, O'zbekiston, e-mail: bekova.nazora@mail.ru

tutib, shuningdek, ulug' shoir va mutafakkirning adabiy-ilmii merosini mamlakatimizda va xalqaro miqyosda yanada chuqur tadqiq qilish va keng targ'ib etish" nihoyatda muhim.

Uning devonlarida harflar tartibiga ko'ra hamd g'azallarining joylashtirilishi, shuningdek, ilohiy buyuklik va yaratuvchilik qudratini aks ettirish usullari shoirning hamd poetikasiga yangicha yondashganini ko'rsatadi. Sharq adabiyotida hamd janri asosan diniy va falsafiy-ma'naviy tafakkurni ifodalash vositasi sifatida qaralib, Navoiy ushbu janrni kengaytirib, uni tasavvufiy tajriba va shaxsiy ruhiy yuksalishning badiiy tasviriga aylantirgan. Shoirning hamd g'azallarida inson va Xudo o'rtasidagi munosabat murakkab ruhiy va falsafiy bosqichlar asosida ifodalangan bo'lib, bunda fano (o'zlikni yo'qotish), suluk (ruhiy sayr) va ma'rifat (ilohiy bilimga erishish) tasavvufiy tushunchalari yetakchi o'rin tutadi. Navoiy she'riyatida mayxona, butxona, soqiy, may kabi obrazlar orqali tasavvuf falsafasi poetik shaklda talqin qilinib, zohiriy diniy qoidalar va botiniy ruhiy yuksalish o'rtasidagi ziddiyatlar ham yoritiladi. Ushbu yondashuv Navoiy she'riyatini nafaqat diniy adabiyot namunasi, balki chuqur falsafiy va ma'naviy xabarlarini ifodalovchi murakkab poetik tizim sifatida baholash imkonini beradi. Navoiyning hamd poetikasini o'rganish nafaqat uning ijodiy merosini anglash, balki Sharq mumtoz adabiyotining shakllanishi va rivojlanishi, islomiy falsafa va tasavvufiy g'oyalarning she'riyatdagi o'rini aniqlash uchun ham muhimdir.

Alisher Navoiyning hamd g'azallari "uning lirikasidagi o'tkinchi va tobe'bir kayfiyat"sifatida e'tirof etildi. Taniqli adabiyotshunos olim Maqsud Shayxzoda hazrat Navoiyning hamd g'azallarini mafkura tazyiqlari (dahriy tuzum uchun zararli ma'naviy unsur sifatida butunlay yo'qotib yuborilishi)dan saqlab qolish maqsadida atayin shunday baholashni lozim deb topgan. Shunday bo'lishiga qaramay, Alisher Navoiy ijodining ilohiy-irfoniy manbalardan oziqlanganligi e'tirof etilgan edi. Bu ayniqsa, E.E. Bertels, Oybek, A. Rustamov, H. Sulaymon, A. Hayitmetov, B. Valixojayev, N. Komilova, R. Vohidov, S. G'aniyeva, H. Ne'matov, I. Haqqulov, E. Shodiyev, Yo. Is'hoqov va yana bir qator olimlarning ishlarida yorqin ko'zga tashlanadi. (N. Bekova, D. Istamova 2023, 738)

Alisher Navoiy o'zigacha o'tgan betakror tafakkur egalarining har biri ijodidagi eng ilg'or xulosalarni teran anglab etdi va alohida-alohida xulosalarni yashash tajribasi orqali ijodiy ravishda bir o'zanga birlashtirdi. Shuning uchun bu turkumni «Sittai zaruriya» deb nomladi. Chunki Haqqa etishning asosi sog'lom Ruhdir, ulug' shoir esa turkumdagi har bir qasidada ruhiy-ma'naviy poklanish tasviriga alohida ahamiyat beradi. Iso kabi Ruhga aylanish shoir lirik qahramonining ezgu orzusidir. «Xazoyin ul-maoniy»da boshqa ilohiy nomlarga nisbatan Iso Masihning behad ko'p tilga olinishining asosiy sababi ham shunda (Nazzora BEKOVA, Hikmet KORAŞ 2024:109)

Tadqiqotning asosiy maqsadi Navoiyning hamd janriga qo'shgan badiiy va konseptual yondashuvlarini tahlil qilish, uning Qur'oni Karim intertekstualizatsiyasidan foydalanish usullarini o'rganish hamda poetik tasvirlar orqali ilohiy sevgini aks ettirish metodlarini ochib berishdan iborat. Shu bilan birga, Navoiyning hamd she'riyati hali ham yetarlicha tadqiq qilinmagan ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib, ayniqsa, uning arab va fors hamd she'riyati bilan bog'liqligi, Qur'oni Karim matnlari bilan poetik muloqoti va lingvistik-semiotik xususiyatlari yanada chuqur o'rganilishi lozim. Kelajak tadqiqotlarida Navoiyning hamd poetikasini matn tahlili, intertekstual tahlil va kompyuter lingvistikasi metodlari orqali chuqur o'rganish, shuningdek, uning adabiy-falsafiy ta'sir doirasini zamonaviy ruhiy diskurs va dinlararo muloqot nuqtayi nazaridan tahlil qilish ham dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Shu sababli, ushbu tadqiqot Navoiyning hamd janridagi novatorlik yondashuvlarini, uning Sharq falsafiy va diniy tafakkuriga qo'shgan hissasini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishga qaratiladi (Bekova N.2003).

1. Adabiyotlar Tahlili

Hamd g'azallarining aksariyatida shoir Alloh butun mavjudotning yaratuvchisi ekanligini badiiy til bilan ta'riflaydi. Bunda yaralganlarning bari – Allohning mavjudligiga isbot deb qaraladi. Chunki tasavvufda butun borliq – Alloh, ya'ni Zotning ko'rinishi – tajallisi deb qaraladi. Allohga murojaat qilib, uni madh etayotgan, undan najot so'rayotgan shoir o'z fikrlarini ochiq, to'g'ridan tog'ri, ko'p qatlamli ma'nolar kasb etgan timsol-u tashbehlar ostiga yashirmasdan, bunday usulni qo'llagan taqdirda ham, muayyan ishoralar bilan ifodalaydi, ya'ni majoziy ishq zamirida haqiqiy ishq kuylanmaydi, balki Allohga muhabbatning o'zi bitiladi. Aynan shu jihati bilan bu turkum g'azallar shoirning ko'p qatlamli ma'no kasb etgan oshiqona tasavvufga mansub g'azallarini o'rganishda kalit bo'lib xizmat qilishi mumkin (Roxatliyeva N. 2024: 133)

Navoiy asarlarining tasavvufiy mohiyati va ilohiy sevgini madh etish usullari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shoir ijodidagi Qur'oni Karim oyatlari va hadislarga asoslangan badiiy tasvirlar muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Bekova tomonidan olib borilgan tadqiqotda Navoiy g'azallarida fano, suluk va ma'rifat kabi tasavvufiy tushunchalar qanday aks etgani batafsil ochib berilgan. Shu bilan birga, Bekova va Sayliyeva Navoiy ijodidagi ilohiy madh motivlari va uning Sharq mumtoz she'riyatidagi o'rnini aniqlashga harakat qilgan. Tadqiqotlarda Navoiyning hamd g'azallarida Ollohning buyukligi va yaratuvchilik qudrati hamda insonning ruhiy yuksalishi poetik vositalar orqali yuksak badiiyat bilan aks ettirilgani ta'kidlanadi. Shuningdek, Bekova tomonidan o'tkazilgan tahlillarda Navoiy hamd g'azallarining uslubiy va poetik xususiyatlari hamda ularning klassik Sharq she'riyati bilan bog'liqligi chuqur tahlil qilingan. Bu tadqiqotda shoirning Qur'oni Karim oyatlari va hadislarga asoslangan hamd g'azallari poetik jihatdan o'ziga xosligi bilan ajralib turishi, ularning simbolik va metaforik ko'rinishlari orqali ilohiy haqiqatlarni ifodalash uslubi o'rganilgan. Tadqiqot Navoiy ijodidagi rindi va zohid, xonaqoh va dayr, ma'shuqa va ilohiy ishq kabi kontrast obrazlar orqali tasavvufiy mafkurani she'riyatga singdirish uslubini tahlil qiladi.

Bundan tashqari, N.J.Bekovaning ilmiy asarlarida Navoiy g'azallaridagi tabiat tasvirlari va ilohiy haqiqat o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan bo'lib, unda Quyosh, Oy va Yulduz obrazlari orqali Ollohning jamoli va nuriyati tasvirlangan. Ushbu tadqiqotlarda Navoiy tomonidan ishlatilgan poetik vositalarning ta'riflash, tashxis va tazod san'ati orqali ilohiy falsafa va haqiqatni yoritish uslubiga alohida e'tibor qaratilgan. Navoiyning Hamd poetikasi va uning badiiy falsafasi bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar shoir ijodining Sharq adabiy an'analari, tasavvufiy qarashlar va Qur'oni Karim asoslariga tayanib yaratilganini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqotlar Navoiy ijodining hozirgi zamon adabiyotshunosligida ham dolzarbligini ta'kidlab, uning hamd g'azallari poetikasining badiiy va falsafiy jihatdan chuqur tahlil qilinishiga asos bo'lmoqda.

Ushbu adabiy tahlil tadqiqoti Alisher Navoiyning hamd she'riyatini matn va tarixiy-kontekstual jihatlar asosida o'rganish metodologiyasi orqali amalga oshiriladi. Tadqiqotda hermenevtik tahlil qo'llanilib, Navoiyning she'riyatidagi til, badiiylik va falsafiy g'oyalar tasavvufiy ta'limot va islomiy ilohiyot nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Tadqiqot davomida Navoiyning devonlari tizimli ravishda tahlil qilinib, uning hamd g'azallarining strukturaviy xususiyatlari hamda ularning fors va turkiy klassik she'riyat an'analari bilan bog'liqligi aniqlanadi. Shoirning ilohiy madh va mistik tafakkurni ifodalash uslubi tanlangan baytlarda retorik usullar, metaforalar va ramziy tasvirlardan qanday foydalanilganligi asosida chuqur tahlil qilinadi. Navoiyning hamd she'riyatidagi yondashuvi Sharq mumtoz shoirlari bilan qiyosiy tahlil qilinib, uning mazkur janrga qo'shgan betakror hissasi aniqlanadi. Tadqiqot shuningdek, Qur'oni Karim oyatlari va tasavvufiy ta'limotlardan foydalanib, fano (o'zlikni yo'qotish), suluk (ruhiy sayr), ma'rifat (ilohiy bilish) kabi ilohiy tushunchalarning uning baytlarida badiiy ifodalanganini o'rganadi. Tarixiy kontekstualizatsiya orqali Navoiyning she'riy innovatsiyalari Timuriylar davrining intellektual, madaniy va diniy ijtimoiy sharoitlari bilan bog'liq holda yoritiladi. Nihoyat, ushbu metodologiya Navoiyning mumtoz she'riyat

an'analarni, diniy falsafani va lingvistik san'atni qanday uyg'unlashtirib, o'ziga xos hamd poetikasini yaratganini ochib beruvchi mukammal ilmiy asos taqdim etadi. Bu esa Navoiyning poetik an'anasi hali ham olimlar va adabiyot ixlosmandlarini hayratga solayotganini namoyon etadi.

2. Natija va Muhokama

Alisher Navoiy hamd poetikasi uning tuzilmaviy, falsafiy va badiiy o'lchovlari asosida o'rganilib, islom ilohiyoti, tasavvuf an'analari va klassik fors-turk she'riyati bilan chambarchas bog'liq ekanligi aniqlanadi. Navoiy hamd yaratish tamoyillari tizimli va chuqur ma'naviy asosga ega bo'lib, u Yaratganning inson ruhi bilan bo'lgan aloqasiga katta e'tibor qaratadi. Avvalgi shoirlar madhni izolatsiyalangan she'riy shakllar orqali ifoda etgan bo'lsa, Navoiy uni yaxlit va strukturalangan poetik tizim shaklida bayon etgan bo'lib, hamd g'azallarini mistik diskurs bilan bog'liq holda rivojlantirgan. Uning Qur'oni Karim mavzulari va islomiy falsafa bilan hermenevtik munosabati ruhiy tarbiya va ma'naviy kamolotga xizmat qiluvchi ongli poetik strategiya ekanligini ko'rsatadi. Uning she'riyatida zidlik, allegoriya va metaforik tasvirlar keng qo'llanilib, ilohiy buyuklik va rahm-shafqatning dualistik konsepsiyasi tasavvuf falsafasidagi yer hayoti va ilohiy yuksalish o'rtasidagi keskinliklar bilan bog'liq holda aks ettirilgan.

Navoiyning hamd she'riyatini avvalgi va zamonaviy shoirlar bilan qiyosiy tahlil qilish natijasida u intertekstual uslubga innovatsion yondashgani isbotlanadi. Klassik shoirlar iloha ta'rifini odatiy ritorik shakllar bilan ifodalagan bo'lsa, Navoiy hamdni o'ziga xos poetik kontekstga joylashtirgan, uni ilohiy yaqinlik sari yo'l sifatida tasvirlagan. U tasavvufiy tushunchalar – fano (o'zlikni yo'qotish), suluk (ruhiy sayr) va ma'rifat (ilohiy bilim) ni o'z she'riyatiga singdirish orqali ko'p qirrali poetik tuzilmani yaratgan. Bu mavzular faqat diniy maqsadlarni aks ettirib qolmay, balki islom tasavvufining epistemologik bahslariga ham qo'shiladi, bu esa Navoiyning Timuriylar davrining ilmiy-madaniy muhokamalarida faol ishtirok etganini ko'rsatadi. Uning she'rlari ortodoksiya va heterodoksiya o'rtasidagi tafovutni ochib berib, rind (tasavvufiy isyonkor) va zohid (taqvodor) obrazlari orqali muqobil diniy talqinlar hamda ilohiy muhabbat va e'tiqodning murakkabligini yoritadi.

Shunga qaramay, Navoiyning hamd she'riyati bo'yicha tizimli tadqiqotlar global poetik an'analarni bilan taqqoslanmagan. Uning Qur'oni Karim intertekstualizatsiyasining poetik jihatlari qisman o'rganilgan bo'lsa-da, lingvistik va semiotik tahlillar yetarlicha olib borilmagan. Arab va fors hamd she'riyati bilan qiyosiy tadqiqotlar Navoiyning poetik innovatsiyalarini yanada aniqroq ochib berishi mumkin. Shuningdek, islom falsafasi va Navoiyning poetik uslubi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tasavvufning ontologik va epistemologik jihatlari nuqtayi nazaridan tahlil qilish zarur.

Kelajakdagi tadqiqotlar lingvistik, tarixiy va ilohiy yondashuvlarni o'z ichiga olgan multidisiplinar metodologiyani qabul qilishi lozim. Kompyuter lingvistikasi asosida matn tahlili orqali takroriy naqshlar va tematik bog'liqliklar aniqlanib, Navoiyning stilistik rivojlanishi chuqurroq o'rganilishi mumkin. Bundan tashqari, Navoiyning poetik falsafasining zamonaviy ruhiy diskursda amaliy qo'llanilishi ham diqqatga sazovordir. Uning ilohiy muhabbat, insoniy kamtarlik va axloqiy yuksalish haqidagi ta'kidlari hozirgi zamonda axloq falsafasi, dinlararo muloqot va adabiy ta'limotda dolzarb ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Navoiyning hamd poetikasi islom ilohiyoti, mistik falsafa va badiiy ixtironing murakkab uyg'unligini ifodalaydi. U klassik adabiyotga ulkan hissa qo'shgan bo'lsa-da, uning poetik merosi falsafiy va intertekstual jihatdan yanada chuqurroq o'rganilishi zarur. Nazariy va amaliy tadqiqotlarning kengaytirilishi adabiyotshunoslik hamda ko'p tarmoqli akademik izlanishlar uchun yangi yo'nalishlar ochadi, natijada Navoiyning ma'naviy va ilmiy merosi kelajak avlodlarni ilhomlantirishda davom etadi.

Navoiyning devonlari mamlakatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlarni yo'lga qo'yishda ulkan vazifa bajargan. E'tiborlisi, bu jarayon shoir vafotidan keyin ham davom etib kelayotir. Hozirgi paytda ham uning asarlari qaysi tilga tarjima qilinsa, bu amalda o'sha mamlakat bilan adabiy-madaniy hamkorliklarimiz ravnaq topayotganidan dalolat beradi (Sultonmurod Olim, 2017)

Xulosa

Alisher Navoiy hamd poetikasini qanday qo'llagani o'rganilganda, uning tizimli tuzilishi va ma'naviy chuqurligi hamda islomiy ilohiyot va tasavvufiy falsafa bilan uyg'unligi ochib beriladi va shu orqali Navoiyning hamdga bo'lgan yondashuvi avvalgi poetik an'analardan qanday farq qilishi aniqlanadi. Qur'oni Karim intertekstualizatsiyasining ongli ishlatilishi, allegorik tasvirlar va paradoksal usullar uning ilohiy buyuklik va rahm-shafqatni bir paytning o'zida aks ettirishi bilan bog'liq bo'lib, bu esa tasavvuf falsafasidagi ontologik va epistemologik muammolar bilan uyg'unlashadi. Navoiy hamdni mustaqil poetik element sifatida emas, balki tizimli poetik tuzilma doirasida joylashtirish orqali janr doirasini kengaytirib, ilohiy sevgi, insoniy kamtarlik va ruhiy yuksalishni ifodalovchi ko'p qirrali va murakkab poetik tizim yaratgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, uning tasavvuf (fano, suluk va ma'rifat) tushunchalarini qo'llashi nafaqat diniy maqsadlarga, balki Timuriylar davrining ilmiy va falsafiy bahslarida ishtirok etish uchun ham xizmat qilgan. Ushbu xulosalar adabiyotshunoslik va ilohiyotshunoslik uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, Navoiyning hamd she'riyati dunyo she'riyati, jumladan, arab va fors she'riyati kontekstida qanday mavqega ega ekanligini o'rganish uchun qiyosiy tadqiqotlar olib borish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, Navoiyning Qur'oni Karim intertekstualizatsiyasi bo'yicha lingvistik va semiotik tahlillar ham uning stilistik va tematik innovatsiyalarini yanada chuqurroq o'rganish uchun zarur yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Kelajakdagi tadqiqotlar tarixiy, ilohiy va kompyuter lingvistikasi metodlarini birlashtirgan ko'p tarmoqli yondashuvdan foydalanishi lozim, bu esa matn naqshlarini aniqlash va chuqur konseptual tahlillarni amalga oshirish imkonini beradi. Navoiyning poetik falsafasini nazariy va amaliy jihatdan keng tadqiq qilish nafaqat adabiy tadqiqotlarni boyitadi, balki zamonaviy ruhiy-ma'naviy diskurs, axloqiy qadriyatlar va dinlararo muloqotga oid fikr almashuvlarga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu tariqa, Navoiyning ilmiy va poetik merosi akademik muhokamalar va tadqiqotlar doirasida hanuz dolzarb bo'lib qoladi.

ADABIYOTLAR

- Ataniyazova, M. (2021). *Mumtoz Adabiyot Istilohlari Qisqacha Izohli Lug 'Ati*. Извлечено 10 март 2025 г., от https://www.researchgate.net/profile/Muborak-Ataniyazova/publication/363331205_Mumtoz_adabiyot_istilohlari_qisqacha_izohli_lugati/links/6318091bacd814437f0bb081/Mumtoz-adabiyot-istilohlari-qisqacha-izohli-lug-ati.pdf
- Bekova, N. (2023). Ayn Ul-Hayot Qasidası, Nashrlardagi Tafvutlar. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(5), 737–745.
- Bekova N. Alisher Navoiyning hamd g'azallari va "Ruh ul - quds" qasidasining badiiyati. *Filologiya fanlari nomzodlik dis.. - Toshkent: 2003.*
- Bekova N. Alisher Navoiy she'riyatida xamd poetikasi //Toshkent: Fan. – 2006. – T. 148.
- Nazzora Bekova, Hikmet Koraş Alisher Navoiy Qasidalari: Adabiy Ta'sir Va Novatorlik XI Beynəlxalq Türk Dünyası Araşdırmaları Simpoziumu 11-13 İyun 2024 / Bakı 109-b
- Roxataliyeva Noila G'ayratjon qizi, "Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida" mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya, ALISHER NAVOIY HAMD G'AZALLARIDAGI TASAVVUFİY TIMSOLLAR 133, 2024
- Sultonmurod OLIM "Tafakkur" jurnali, 2017-yil 2-son "Navoiy qanday mutolaa qilgan?" maqolasi